Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 2019 йил 9 октябрь. 06/19/5847/3887-сон.

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги давлат хизматини ривожлантириш агентлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида” 2019 йил 3 октябрдаги ПҚ-4472-сонли Қарори / Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 2019 йил 4 октябрь. 07/19/4472/3906-сон.

13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсати ва давлат хизмати тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2019 йил 3 октябрдаги ПФ-5843-сонли Фармони / Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 2019 йил 4 октябрь. 06/19/5843/3900-сон

14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. – Тошкент: Адолат, 2018. – Б. 4-6.

15. https://vacancy.argos.uz.

ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZI - UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI

Shamsiyeva M.X.
Farg‘ona davlat universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti v.b., PhD

Saydaliyev H.N
Farg‘ona davlat universiteti
Tarix fakulteti 4-bosqich talabasi
saydaliyevhosilbek525@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonda yuz berayotgan o‘zgarishlar. Yangi O‘zbekiston, Uchinchi Renessans haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, Islom sivilizatsiyasi haqida va unga tayangan holda tashkil qilinayotgan Islom sivilizatsiyasi markazi, unimg maqsad-vazifalari, uning tarkibiy tuzilishi haqida ma’lumotlar beriladi.*

Kalit so‘z va iboralar: *Yangi O‘zbekiston, Uchinchi Renessans, Islom sivilizatsiyasi markazi, “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik”rezolutsiyasi, Shoazim Minovarov, Usmon Qur’oni, ilmiy-ma’rifiy maskan.*

Аннотация: *В данной статье описываются изменения, происходящие в Узбекистане. Речь пойдет о Новом Узбекистане, Третьем Возрождении. Также дана*

информация об исламской цивилизации и Центре исламской цивилизации, его целях и задачах, его структуре.

Ключевые слова и фразы: *Новый Узбекистан, Третье Возрождение, Центр исламской цивилизации, резолюция «Просвещение и веротерпимость», Шоазим Миноваров, Усман Коран, научно-образовательный центр.*

Annotation: *This article describes the changes taking place in Uzbekistan. New Uzbekistan, the Third Renaissance will be discussed. Also, information is given about Islamic civilization and the Center of Islamic Civilization, its goals and tasks, and its structure.*

Key words and phrases: *New Uzbekistan, Third Renaissance, Center of Islamic Civilization, "Enlightenment and Religious Tolerance" resolution, Shoazim Minovarov, Usman Qur'an, scientific and educational center.*

Yangi O‘zbekiston yangi imkoniyatlar mamlakatidir. Amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy islohatlar natijasida yurtimiz yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Aytish joizki, O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida nufuzli xalqaro tashkilotlarning teng huquqli subyektiga aylanib, tinchlik, bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik borasida yuritayotgan siyosati orqali dunyo hamjamiyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2017-yil 19-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ishtiroki va unda muhim huquqiy hujjat – BMTning “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolutsiyasini qabul qilinishi haqidagi taklifi zamirida yer sharida barchaning ta’lim olish huquqini ta’minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko‘maklashish yotadi.

Ushbu rezolutsiya bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minlash, e’tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashishga qaratilgan ***[5: 62].***

Movarounnahr zamini ilm-fan beshigi hisoblanadi. Bu muqaddas zamin ko‘plab dunyo sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan allomalarni tarbiyalagan. Musulmon Sharqida ilm-fan va madaniyat yuksak darajada ravnaq topgan IX-XII, XIV-XV asrlar tarixga Renessans – Uyg‘onish davri nomi bilan kirdi ***[1].***

Bugun yurt kelajagi bo‘lgan yoshlarni ajdodlarimiz yaratgan ilmiy merosga sadoqat ruhida tarbiyalash va ularning davomchisi sifatida qo‘llab-quvvatlash maqsadida ko‘plab OTM lar, akademiyalar, ilmiy-tadqiqot institutlari va

markazlari tashkil qilindi. Jumladan, 2017-yilda Prezident Sh. Mirziyoyevning tashabbusi bilan Buxoroda Ismoil al-Buxoriy nomli madaniy markaz, Termizda Imom at-Termiziy nomidagi madaniy markaz, Toshkentda Islom sivilizatsiya markazining tashkil etilishi ahamiyatga molikdir ***[6: 316].***

2017-yil 21-aprel kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Olmazor tumaniga tashrifi chog‘ida Hazrati Imom (Hastimom) majmuasida Islom madaniyati markazini tashkil etish taklifini bildirgan edi. Dastlab islom madaniyati markazi nomini olgan bo‘lsa, keyinchalik u madaniy, ma’rifiy, ilmiy, diniy ilmlarni keng miyosda o‘rganadigan markaz bo‘lishi ko‘zlanganligi bois shu yilning sentyabr oyida uning nomi islom sivilizatsiyasi markaziga o‘zgartirildi.

Islom sivilizatsiyasi Allohning yagona Kitobi – Qur’oni Karimga asoslangan yagona sivilizatsiyadir. Ushbu sivilizatsiyaga ilk o‘rta asrlarda Qur’ondagi va hadislardagi ilm, tinchlik va bunyodkorlikka da’vatlardan ruhlangan Xitoydan Ispaniyagacha bo‘lgan hududda istiqomat qilgan mutafakkirlar va olimlar asos soldilar.

XIV-XVI asrlarda Amir Temur va temuriylar davrida qo‘lga kiritilgan ilm-fan va madaniyat sohasidagi yutuqlar islom sivilizatsiyasining ikkinchi bosqichi uchun zamin yaratdi. O‘z o‘rnida bugungi kunda tashkil etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi uchun tamal toshi bo‘lib xizmat qildi.

Islom madaniyati markazi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 23-iyundagi PQ-3080-son qaroriga asosan tashkil etilgan ***[1].***

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi “Uchinchi Renessans – Yangi O‘zbekiston” g‘oyasini keng targ‘ib qiluvchi, mamlakat tarixining yangi yuksalish davridagi yutuqlarini ilmiy asosda o‘rganuvchi, uni keng jamoatchilikka yetkazib beruvchi hamda moddiy-madaniy meros namunalari, islom dini bilan bog‘liq qadimiy va boy an’analarni targ‘ib qiluvchi ilmiy-ma’rifiy maskan bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan ushbu muassasa xalqimizning boy o‘tmishini, ilm-ma’rifat rivojiga qo‘shgan katta hissasini namoyon etadigan yaxlit majmua bo‘ldi. Hamma o‘z tarixini ulug‘laydi. Lekin bizning yurtimizdagidek boy o‘tmish, buyuk qomusiy allomalar yetishib chiqqan yurt sanoqli. Ular yaratgan ilmiy merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak. Bu markazga kelgan odam ulkan merosimiz haqida to‘la tasavvurga ega bo‘lishi, katta ma’naviyat olib ketishi zarur.

Hozirda markazga filologiya fanlari doktori, professor Shoazim Minovarov rahbarlik qilmoqda. Markazning umumiy maydoni 7 gektarni tashkil qilib, uning 4 gektar qismida markaz binosi joylashgan. Uning to‘rt tomonida 4 ta darvoza joylashgan. Ularning peshtoqlariga ilmli, ma’rifatli bo‘lishga chaqiruvchi hadislardan namunalar yozish taklifini yurtboshimiz bu yerga tashriflarida birida berib o‘tadi. Shunga asoslanib, markazning asosiy darvozasi peshtoqiga ilm olish farz ekanligi haqidagi hadis bitilgan. Binoning markazida sharq me’morchiligiga xos gumbaz barpo etildi. Markaz 3 qavatdan iborat bo‘lib, Birinchi qavatda muzey ombori, qadimiy qo‘lyozma va osori-atiqalarni saqlash hamda restavratsiya qilish xonalari, nashriyot va kitob do‘konlari joylashgan. Ikkinchi qavatdagi ulkan foye markaziga Usmon Qur’oni joylashtirildi. Shuningdek, bu yerda Islom san’ati muzeyi, 435 kishiga mo‘ljallangan konferensiya zali mavjud. Ko‘rgazmalarda O‘zbekiston tarixi davrlar bo‘yicha, har bir asr, har bir allomaga oid manbalar va ashyolar asosida namoyish etiladi.

Uchinchi qavatdan esa 100 mingtagacha qo‘lyozmalar fondida ega kutubxona, axborot-resurs markazi, ilmiy kafedralar va ma’muriy xonalar joylashgan.

Markaz faoliyatining asosiy maqsadi - e’tiqodi islom dini bog‘liq boy va noyob merosni ilmiy asosda har tomolama chuqur o‘rganish, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg‘otish, ular bilan xalqimiz va jahon jamoatchiligini keng tanishtirish, xalqaro miqyosda dinlararo va sivilizatsiyalaro muloqotni yo‘lga

qo‘yish, islom dinining insonparvarlik mohiyatini ochib berish, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, yosh avlodni gumanistik g‘oyalar milliy g‘urur va iftixor ruhida tarbiyalashdan iborat.

2021-yil 16-iyuldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5186-son qarori negizida qiyidagi vazifalar belgilandi:

- “Uchinchi Renessans - Yangi O‘zbekiston” g‘oyasini keng targ‘ib qilish;
- mamlakat tarixining yangi yuksalish davridagi yutuqlarini ilmiy asosda o‘rganish, uni keng jamoatchilikka yetkazib berish;
- moddiy madaniy meros namunalarini, islom dini bilan bog‘liq qadimiy va boy an’analarni targ‘ib qilish.

Markazning yangilangan asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- muqaddas islom dini bilan bog‘liq boy merosni ilmiy tadqiq etish, uning Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi rivojidagi o‘rnini innovatsion usullar orqali targ‘ib qilish;
- O‘zbekistonda yuz bergan umummilliy yuksalishlar, tarixiy renessanslarning ildizlari va mazmun-mohiyatini mamlakat aholisi, ayniqsa, yoshlarga yetkazish bo‘yicha zarur choralarni ko‘rish;
- buyuk ajdodlarning jahon tamadduni, diniy va dunyoviy ilmlar rivojiga qo‘shgan hissasini eng zamonaviy usullar va vositalar orqali yoritib borish;
- yoshlarni ilm-ma’rifatga da’vat etadigan, milliylik va diniylik o‘rtasidagi uyg‘unlik mohiyatini keng targ‘ib qilishga qaratilgan media mahsulotlar, ilmiy ishlanma va tavsiyalarni tayyorlash;

- ziyorat turizmining ilmiy asoslari bo‘yicha yetarli nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega gid-tarjimonlarni tayyorlash hamda ularning malakasini tizimli oshirib borishni ta’minlash;
- ilm-fanning jadal taraqqiyotini ko‘rsatib beruvchi sermazmun eksponatlar fondi, qo‘lyozma va zamonaviy nashrlardan iborat boy kutubxonalar tizimini shakllantirish hamda ularning jahon muzeylari va kutubxonalari tarmog‘iga ulanishini ta’minlash;
- O‘zbekiston xalqining islom sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi bo‘yicha fundamental tadqiqotlar dasturlari va ilmiy loyihalarni ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini qo‘llab-quvvatlash;
- islom sivilizatsiyasini tadqiq etish sohasining dolzarb ilmiy-nazariy va uslubiy masalalariga bag‘ishlangan konferensiyalar, simpoziumlar, ko‘rgazmalar va ilmiy ma’ruzalar, seminar-treninglar, tanlovlar va boshqa madaniy-ma’rifiy tadbirlarni doimiy tashkil etib borish;
- islom sivilizatsiyasi yo‘nalishida amalga oshirilgan yangi tadqiqotlar natijalaridan ilmiy jamoatchilikni xabardor qilib borish, respublika muzeylari va kutubxonalarida ishlayotgan xodimlarning kasbiy salohiyatini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy va uslubiy treninglarni yo‘lga qo‘yish;.
- islom tarixi va madaniyati yo‘nalishiga oid bilimlarni oshirish, qadimiy qo‘lyozma, toshbosma va tarixiy hujjatlarni konservatsiya va restavratsiya qilish, qog‘oz, muqovasozlik, xattotlik san’atini tiklash, islom manbalarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv kurslari va Kitobat ilmi maktabini tashkil etish;
- “Uchinchi Renessans – Yangi O‘zbekiston” g‘oyasining mazmun-mohiyatini, jumladan, uning ilm-fan rivoji, dinlararo va millatlararo bag‘rikenglikni ta’minlashdagi roli va ahamiyatini jamoatchilik orasida keng targ‘ib qilish ***[2].***

Xulosa qilib aytganda, bugun Islom sivilizatsiyasi markazi jahonning yana bir ilmiy tadqiqotlar markaziga aylandi. Undan nafaqatlar mahalliy, balki xalqaro doiradagi tadqiqotchilar ham hech qanday to‘siqlarsiz foydalanishi mumkin.

Bugungi globallashuv zamonida u ilm, madaniyat, ma’rifat tarqatuvchi vazifasini bajarmoqda. Bu markaz yaqin kelajakda Yangi O‘zbekistonning poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Shu o‘rinda davlat rahbarimizning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish joiz: “Bugun biz intilayotgan Yangi O‘zbekistonni, Uchinchi Renessansni poydevorini bunyod etish – bu shunchaki orzu emas. Bu – aniq strategik maqsad va umumxalq harakatiga aylanib borayotgan beqiyos amaliy jarayondir. Ishonamanki, bunday ulkan jarayonning natijasi ham, albatta, ulkan bo‘ladi” ***[3: 19-20].***

Yagona maqsad asosida yanada hamjihat bo‘lib, tinimsiz o‘qib-o‘rgansak, ishimizni mukammal va unimli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o‘zimizni ayamasdan mehnat qilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o‘zgaradi, dunyoqarashimiz o‘zgaradi va shular orqali avlodlarimizga munosib meros, rivojlangan davlatni qoldira olamiz.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 23-iyundagi PQ-3080-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021-yil 16-iyuldagi PQ-5186-son qarori.

3. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston — taraqqiyot strategiyasi. – T.:“O‘zbekiston”,2022. – B, 416.

4. G‘oibnazarov Shuhrat. Islom terrorizmga qarshi. – T.: “O‘zbekiston”,2021. – B,320.

5. Alimov U.I. “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” o‘zaro ishonchni rivojlantirish borasidagi rezolutsiyasi barqarorlik asosi/“Bag‘rikenglik – o‘zaro ishonchni rivojlantirishning vositasi sifatida” xalqaro ilmiy anjuman. – T.:2018. – B. 61-63.

6. Botirov B.M, Mahmudov S.A. O‘zbekiston – IHT: Barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik/“Bag‘rikenglik – o‘zaro ishonchni rivojlantirishning vositasi sifatida” xalqaro ilmiy anjuman. – T.:2018. – B,315-317

7. Siddiqova R.B. Talaba yoshlarda bag‘rikenglikni shakllantirish /“Bag‘rikenglik – o‘zaro ishonchni rivojlantirishning vositasi sifatida” xalqaro ilmiy anjuman. – T.:2018. – B, 277-279.

8. Radjabova M.Z. Islom dinining bag‘rikenglik tamoyillari/“Bag‘rikenglik – o‘zaro ishonchni rivojlantirishning vositasi sifatida” xalqaro ilmiy anjuman. – T.:2018. – B,167-170.

Internet manbalari:

1. www.Cisc.uz
2. www.lex.uz
3. www.gazeta.uz
4. www.kun.uz

FARG‘ONA VILOYATIDA MUSIQA MAKTABLARI QURILISHI VA REKONSTRUKSIYA QILINISHI TARIXIDAN

Alimova N.O.
FDU, O‘zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti, PhD
Akbarova N.A.
O‘zbekiston tarixi mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalar musiqa va san’at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo‘yicha 2009-2014 yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi to‘g‘risida”gi PQ-910-sonli Qaror va “Bolalar musiqa va san’at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2016-2020-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2435-sonli Qarorlar ijrosi yuzasidan Farg‘ona viloyati musiqa maktablarida amalga oshirilgan bunyodkorlik va rekonstruktsiya ishlari va uning yo‘lga qo‘yilishiga oid ma’lumotlar yoritilgan.*

Kalit so‘z va iboralar*: ta’lim tizimi, musiqiy ta’lim, ruhan sog‘lom, milliy urf-odat, umumbashariy qadriyatlar, musiqiy tarbiya, san’at tarbiyasi, bolalar musiqa va san’at maktablari, rekonstruksiya, davlat dasturi, jamg‘arma.*

Аннотация: *В данной статье рассмотрены вопросы создания и реконструкции музыкальных школ Ферганской области в рамках исполнения задач, определенных в Постановлениях Президента республики Узбекистан № ПП-910 “О государственной программе укрепления материально-технической базы и дальнейшего улучшения деятельности детских школ музыки и искусства на 2009-2014 годы” и № ПП-2435 “О*